

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,  
CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK  
VA TARJIMASHUNOSLIK

# UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,  
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND  
TRANSLATION STUDIES

2025 Vol. 3 (2)

[www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)  
[www.uzlctscls.tsuull.uz](http://www.uzlctscls.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Uzoq Jo'raqulov  
Nozliya Normurodova  
Ziyoda Teshaboyeva  
**Mas'ul kotib:** Mahmadiyor Asadov

### **Tahrir kengashi**

Qosimboy Mamurov, Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatova, Nigora Sulaymonova, Ilhom Aslonov, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Olmos Xurramov, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillayev, Nilufar Do'stmamatova, Ozoda Gulyamova, Manzura Abjalova, Nargiza Yusupova, Zebiniso Bekmuradova, Sevinch Yoqubova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi №308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – filologiyaning ayni sohalarini qamrab olgan "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlctscls.@navoiy-uni.uz

**Website:** www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

<b>Editor-in-Chief:</b>	Shuhrat Sirojiddinov
<b>Deputy editor-in chief:</b>	Uzok Djurakulov Nozliya Normurodova Ziyoda Teshaboeva
<b>Executive secretary:</b>	Mahmadiyor Asadov

### **Editorial Board**

Qosimboy Mamurov, Bahodir Kholiqov, Komiljon Hamroev, Nargiza Rashidova, Aidakhon Bumatova, Nigora Sulaymonova, Ilhom Aslonov, Yulduz Ziyaeva, Zulfiya To'khtakhadjaeva, Olmos Khurramov, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillaev, Nilufar Do'stmamatova, Ozoda Gulyamova, Manzura Abjalova, Nargiza Yusupova, Zebiniso Bekmuradova, Sevinch Yoqubova.

### **About the Journal**

*Uzbekistan: Language and Culture. Comparative Literature Studies, Contrastive linguistics and Translation Studies* series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary studies, contrastive linguistics and translation studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be Uzbek, English and Russian. Other Turkic languages are also welcome.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.  
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.trans.compliterary.tsuull.uz

## MUNDARIJA

### TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

**Sayyora Shodmonova**

“Boburnoma” matnidagi oʻlchov birliklarining kontekstual tarjimasi ....8

**Sadoqat Fayziyeva**

Kognitiv stilistika asoslari haqida .....17

**Madinaxon Xayitbayeva**

Teatr sanʼatida tarjimaning roli .....25

**Matluba Qudratova**

F.M.Dostoyevskiy asarlari tarjimasining lingvistik va madaniy muammolari .....34

**Dilnoza Umirzakova**

Animatsion filmlar nomlarini tarjima qilishning lingvopragmatik va madaniy jihatlarini .....40

**Elgiza Sobirova**

Muqobilsiz leksik birliklar tarjimasi haqida .....46

### JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

**Azamat Xayrullayev**

Normurod Norqobilov hikoyalarda konflikt .....58

**Maʼsuma Obidjonova**

Ilmiy fantastik hikoyalarda fan-texnika taraqqiyotiga munosabat .....71

**Dilnavoz Najimova**

Sharqiy Osiyo adabiy anʼanalarida antologiya tushunchasi: Xitoy adabiyoti misolida .....79

**Dilnoza Dadaboyeva**

Jorj Oruellning “1984” romanida inson erkinligi talqini .....90

### CHOGʻISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TERMINSHUNOSLIK

**Zebiniso Bekmuradova**

Paremik birliklarda xiazm – madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida .....104

**Mahfuzaxon Xomidova**

Intertekstuallik va til korpusi .....113

**Gulmira Komilova**

Bilingual nutqda estetik buzilish orqali madaniy nutqning ifodasi ....119

**Kamola Abdulloyeva**

Frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlari .....129

**Shoxida Nazarova**

Bilvosita nutqning sintaktik va semantik transformatsiyasi .....139

**Muhiddin Esirgapov**

Neologizmlar: yangi texnologiyalar va madaniyat ta'siridagi atamalar .....151

**Dilshod Amirqulov**

Taqlid so'zlarni o'rganish tarixi va ularni tasniflash masalalari .....160

**Zuxra Zulfiqorova**

Xeminguey asarida voqelik va xotira: lingvopragmatik rekonstruksiya .....168

**Hikmatulloh Ro'zaliyev**

G'aribu-l-hadis asarlari va ularning arab leksikografiyasi rivojidagi o'rni .....175

**Gulmira Ergasheva**

Hunarmandchilik terminlari xususida ayrim ilmiy-nazariy qarashlar .....186

## Taqlid soʻzlarni oʻrganish tarixi va ularni tasniflash masalalari

Dilshod Amirqulov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada taqlid soʻzlar tarixiy-lingvistik manbalar asosida oʻrganilib, unda ularning tabiiy tovush hodisalarini ifodalovchi vosita sifatidagi vazifasi ochib beriladi. Shuningdek, turli manbalarda ushbu birliklarga berilgan taʼrif va yondashuvlar solishtirilib, ularning lugʻaviy boylik sifatida til tizimidagi grammatik vazifalari koʻrsatib oʻtiladi. Qolaversa, ushbu birliklarning mustaqil yoki yordamchi soʻz turkumlari sifatida tasniflanishi ham koʻrib chiqiladi. Zamonaviy oʻzbek tilida taqlid soʻzlar murakkab va bahsli soʻz turkumlaridan biridir. Ular ogʻzaki nutqda ham, badiiy adabiyotda ham keng qoʻllaniladi. Bunday soʻzlar tasvirlanayotgan tovush, harakat yoki hodisani obrazli, yorqin shaklda aks ettiradi va shu bilan ifodaning jonliligi, ekspressivligi va dinamikasini taʼkidlaydi. Bu esa oʻzbek tilshunosligida taqlid soʻzlarni va ularning grammatik jihatdan qaysi soʻz turkumiga mansubligini aniqlash muammosi dolzarb masala ekanligini koʻrsatadi.

**Kalit soʻzlar:** *onomatopiya, semantika, fonetika, morfologiya, sintaksis, semantik-fonetik xususiyatlar, lisoniy tahlil, lingvistik struktura, soʻz turkumi, grammatik rol, ekspressiv komponentlar, fonologik tizim, soʻzning struktural jihatlari, kommunikativ maqsad.*

### Kirish

Taqlid soʻzlar boshqa soʻzlarga nisbatan kelib chiqishi jihatidan farqlansa-da, ular tildagi boshqa soʻzlar bilan teng huquqlidir, chunki har ikki guruhni hosil qilishda bir xil fonetik tovushlar ishtirok etadi. Biroq bu taqlid soʻzlar tabiatdagi tovush va shovqinlarni aynan koʻchiradi, degani emas. Ular bu tovushlarni faqat taxminan ifodalaydi, chunki til oʻz tovush tizimi jihatidan cheklangan. Biroq taqlid shakllar maʼno kasb etganidan keyin ular nutqiy tajriba orqali umumtushunarli soʻzlarga aylanadi.

Taqlid soʻzlar maʼlum bir hodisa yoki harakatni yaxlit va

---

<sup>1</sup> Amirqulov Dilshod Toshtemirovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti oʻqituvchisi.

**E-pochta:** adilshod9001@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0005-2591-8357

**Iqtibos uchun:** Amirqulov, D.T. 2025. "Taqlid soʻzlarni oʻrganish tarixi va ularni tasniflash masalalari". *Oʻzbekiston: til va madaniyat*, 3 (2): 160-167.

obrazli tarzda aks ettiradi. Ular konkret hodisa, tovush, harakat yoki obrazni ifodalaganligi sababli ularning ma'nosi odatdagi so'zlarnikiga nisbatan kamroq umumlashtirish darajasiga ega. Shu bilan birga, ular doimo kuchli ekspressivlik bilan ifodalanadi va butun gapga hissiy tus beradi.

Taqlid so'zlarning qo'llanilish sohasi cheklangan: ular asosan og'zaki nutqda, badiiy asarlarda qo'llaniladi, ammo ilmiy uslubda, rasmiy hujjatlarda va publitsistikada deyarli uchramaydi.

So'zlarning haqiqiy ma'nosi va ularning tarixiy taraqqiyot yo'li qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ularning vujudga kelishi va keyingi ma'no taraqqiyoti uchun asos – bu motivatsiyadir.

Tilning kelib chiqishi haqida fan doirasida turli qarama-qarshi nazariyalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bahs-munozaralar asosida shakllangan. Bunda til insonlarning o'zaro muloqot qilish ehtiyojidan kelib chiqqan bo'lsa, boshqalar til dastlab ayrim shaxslarning o'z fikrlarini avval o'zlari, so'ng boshqalar uchun ifodalash zarurati natijasida paydo bo'lgan, degan qarashlar mavjud.

Kishilarning o'z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so'zlar, predmetlarning nomlari paydo bo'lgan, deb hisoblaydi. Bu nazariya qadimgi Yunonistonda - Demokrit va Platon davrida o'rta tashlangan bo'lib, unga ko'ra ibtidoiy odamlar yo ongli, yo ongsiz tarzda turli – tuman tovushlar, ya'ni hayvonlarning baqiriqlari, qushlarning sayrashi, shamol va sharsharalarning ovozlariga taqlid qilishga harakat qilishgan. Keyinchalik bu jarayon fanga taqlid so'zlar yoki onomatopik so'zlar ko'rinishida kirib keldi. Onomatopiya (onomatopoea) so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, ὀνοματοποιία (onomatopoiía) so'zidan kelib chiqqan. ὄνομα (ónoma) – “ism, nom”, ποιέω (poiéō) – “yaratmoq, hosil qilmoq” degan ma'nolarni anglatadi. Shunday qilib, onomatopiya so'zi “tovushlarni nomlash yoki yaratish” ma'nosini anglatadi. Bu atama lingvistikada tabiatdagi tovushlarga taqlid qilib, hosil bo'lgan so'zlarni ifodalash uchun ishlatiladi. [www.oed.com/dictionary]

Taqlid so'zlarning grammatik xususiyatlari va tasnifi borasida turli tilshunos olimlarning qarashlari bir-biridan farq qiladi. Ayrim olimlar taqlid so'zlarni mustaqil so'z turkumi sifatida tan olish zarurligini ilmiy asoslab bersa, boshqalar bu fikrga qo'shilmaydi.

Shu bilan birga tilning tovushga taqlid qilish va undov so'zlardan kelib chiqqanligi haqidagi nazariyaga qarshi bo'lgan olimlar bir qator dalillar keltiradilar. Masalan, V. I. Abayev shunday deydi: “Bir xil predmet turli tillarda turli tovush signallari bilan nomlanadi. Agar tovushga taqlid tilning asosiy manbai bo'lganida,

bir xil narsa (predmet) har bir tilda bir xil tovush bilan nomlangan bo'lardi" [Abaev 1976:77]. A. V. Vostrikov esa shunday yozadi: "Agar so'zlar rostdan ham tabiat va narsalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan bo'lsa, unda har bir narsa va tushuncha barcha tillarda bir xil bo'lardi va bu holatda ko'plab turli tillarning mavjud bo'lishi uchun ehtiyoj bo'lmas edi" [Vostrikov 1965:106].

Bir xil taqlid shakllarning turlicha ma'noda ishlatilishini N.I.Ashmarin quyidagicha tushuntiradi: "Tabiatdagi butun xilma-xillik dastlab inson tomonidan kam sonli mimemalar orqali ifodalangan" va "bir xil ma'nodagi taqlidlarning tillarda har xil bo'lishi, ba'zida, bir xalq hodisaning eshitish tomonini, boshqasi esa ko'rish tomonini qabul qilganligi bilan izohlanadi: birinchi holatda akustik, ikkinchisida esa vizual taqlid shakli paydo bo'ladi" [Ashmarin 1925:143].

Taqlid shakllarning ma'no xilma-xilligi — bu omonimlik hodisasining oddiy bir ko'rinishi bo'lib, u ko'pincha tovush emas, balki harakatning ritmik tuzilmasi, akustik yoki vizual effektlarni ifodalaydi, deb hisoblaydi G.E.Kornilov [Kornilov 1984:26]. Unga ko'ra, "Inson nutqining boshlanishida katta rol o'ynagan taqlid shakllar asta-sekin ikkinchi darajaga tushib qoldi va qadimgi yozma adabiy tillar bosqichida ular faqat ayrim uslublarda ishlatiladigan, kam uchraydigan birliklarga aylandi. Bu holatda onomatopik birliklar tarixan faol bo'lgan, lekin zamonaviy tilda borgan sari kamroq ishlatilmoqda" [Kornilov 1984:32].

Tovushga taqlid nazariyasiga qarshi bo'lganlar shuni ta'kidlaydilar, bu so'zlar mavhum ma'nolarni ifodalashga qodir emas, son jihatdan kam va ularning qo'llanish sohasi tor doiraga ega.

Tilshunos olim K.Sh.Xusainov imkoniyatlarning cheklanganligi haqidagi da'volarni inkor etgan holda "ovozni ifodalovchi so'zlar nafaqat aniq tushunchalarni ifodalaydi, balki ma'no rivojlanishida eng yuqori darajadagi mavhumlikka ham ko'tarilishi mumkin", deydi [Xusainov 1987:18]. U yana shuni ta'kidlaydiki "ovoz ifodali so'zlarning kamligi va qo'llanish imkoniyatlarining cheklanganligi haqidagi fikrlar, asosan, tadqiqotchilarning ko'pchilik hollarda faqat "sof" ovozga taqlid qilish so'zlarini ajratib olishlari, denaturalizatsiya jarayonini va fonetik ildizlarning, ayniqsa, bir bo'g'inli asoslarning ovozga ifodalilik va tovush ramziyligi bilan bog'lanish imkoniyatlarini hisobga olmasliklariga asoslangan. Masalan, E.V.Sevortyan tuzgan "Turkiy tillarning etimologik lug'ati"da etimologiyalashgan so'zlarning taxminan 1/4 qismini ovozga taqlid so'zlar sifatida tasniflash mumkin" [Sevortyan 1989:5].

Shunday qilib, taqlid so'zlarning semantikasi bo'yicha tadqiqotlar murakkab xarakterga ega bo'lib, bu birliklarning faqat tizimli semantik xususiyatlarini emas, balki ularning faoliyat yuritish qonuniyatlarini ham o'rganishni o'z ichiga oladi.

Taqlid so'zlarni ifodalash uchun ishlatiladigan atamalar juda ko'p: podrajaniye (Platon), mimema (yunonchadan "mimeomai" – taqlid qilmoq) (N.I.Ashmarin, N.A.Baskakov), ifodali so'zlar, taqlid so'zlar, obrazli so'zlar (S.Qudaybergenov, M.Xudayquliyev, R.Kungurov, A.Isxakov), imitative (G.E.Kornilov), onomatop (S.V.Voronin) [Isyangulova 2015:552].

Taqlid so'zlarning o'rganilishi qadim zamonlardan boshlangan va hozirgi kunda ham tilshunoslikda muhim o'ringa ega. Tovush va ma'no o'rtasidagi bog'liqlik haqida ilk tasavvurlar ko'plab xalq afsonalarida aks etgan. Tovush va uning ma'no bilan bog'liqligi masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlar va nazariyalarga asos bo'lgan. Shu ma'noda, J.J.Russo, R.Dekart, M.V.Lomonosov kabi olimlar ham o'z asarlarida tovush ramziyligi masalasini ko'rgan.

XX asrning 20-yillarida O.Jespersen tomonidan tovush ramziyligi bo'yicha nazariy tadqiqotlar boshlangach, bu sohada yangi yondoshuvlar va tahlil metodlari ishlab chiqildi. Rossiyalik tilshunos N.I.Ashmarin taqlid so'zlarni turli kategoriyalar bo'yicha tasniflab, bu sohada asosiy ilmiy yo'nalishlarni belgilab berdi. Ashmarin cho'vash tilida taqlid so'zlar(mimemalar)ni besh asosiy toifaga ajratdi: tovushga taqlid qilish, harakat va yorug'lik hodisalariga taqlid, nutq organlari tomonidan chiqarilgan tovushlarga taqlid, inson organizmidagi tovushsiz hodisalarga taqlid va bolalar so'zlari [Ashmarin 1925:143].

Shuningdek, K.S.Lyuis, D.Bolinger, V.Vundt, F.Sossyur, V.F.Gegel, G.E.Kornilov va boshqa tilshunoslar taqlid so'zlarning etimologik va morfologik tahlilini o'tkazish orqali bu so'zlarning tarixiy taraqqiyotini o'rgandi. Kornilov Taqlid so'zlarni tovush va tovushlar yordamida ob'ekt, jarayon, holat va sifatlarni ifodalash sifatida tushungan.

Zamonaviy o'zbek tilshunoslari taqlid so'zlar haqidagi tadqiqotlarga katta hissa qo'shishgan, ammo ularning so'z turkumlaridagi o'rni bo'yicha turli fikrlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar taqlid so'zlarni undovlarga kiritgan bo'lsa, boshqalari ularni alohida so'zlar guruhi sifatida ajratishni ma'qul ko'rgan. R.Sayfullayeva, S.E.Shodiyev, S.V.Balakin, Sh.N. Turniyozova, I.S.Qahorova, D.T.Xadjiyeva, H.D.Paluanova, G.Qobuljonova, S.Saydaliyev va boshqa olimlar taqlid so'zlarni turkiy tillardagi so'z turkumlari tizimida

alohida bir guruh sifatida tasniflashni taklif etgan.

2010-yilda chop etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida taqlid so‘zlarga mustaqil so‘z turkumi sifatida qaralgan. Kitobda taqlid so‘zlarning o‘zbek tilida bir guruhni tashkil etishi aytilib, mustaqil so‘zlar sirasidan o‘rin olganligi ta’kidlanadi va bir qancha ilmiy asoslar keltiriladi:

-turkiy tillarda taqlid miqdoran ko‘p va ma’no jihatidan rang-barang;

-ulardagi tovushlar tizmasi ma’lum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi;

-aniq grammatik vazifaga ega bo‘lgan mustaqil birlik sifatida ham qatnashadi.

Taqlid so‘zlar, eng avvalo, fe‘l so‘z turkumining shakllanishiga asos bo‘ladi. Shuningdek, ular ot so‘z turkumining tarkib topishiga ham ta’sir qiladi. Lug‘aviy ma’no ifodalash jihatidan taqlid so‘zlar ikki guruhga bo‘linadi. Mustaqil so‘z turkumi sanaluvchi olmoshlar esa lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmasligi va derivatsion qo‘shimchalar orqali kamdan-kam yangi so‘z hosil qilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, qaysi biri – olmosh yoki taqlid so‘zlar – mustaqil so‘z turkumiga mansub bo‘lishi kerakligi haqida bahsli holat yuzaga keladi.

Ba’zi tilshunoslarning (B.Mengliyev, R.Sayfullayeva) fikricha, taqlid so‘zlar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lishi va yangi so‘z yasalishiga asos bo‘lishi sababli mustaqil so‘z turkumiga kiritilishi kerak. Boshqa tilshunoslar esa taqlid so‘zlarni alohida turkum sifatida yoki ba’zi manbalarda oraliqdagi so‘z turkumi sifatida tasniflash maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlaydi.

Taqlid so‘zlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘zgaruvchan emas, ya’ni ega va kesim bo‘la olmaydi, kelishik yoki zamon bilan bog‘lanmaydi. Shu sababli ular o‘zgarmas so‘zlar turkumiga, leksik-grammatik jihatdan esa undovlar va ravishlar guruhiga kiritiladi. Bu so‘zlarning ko‘plab tilshunoslar tomonidan tasniflanishi va o‘rganilishi, ularning tilshunoslikda qanday ro‘l o‘ynashini va boshqa so‘z turkumlaridan qanday farq qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Professor X.G.Yusupov va N.A.Kurashkina taqlid so‘zlar va undovlarning o‘rtasidagi farqlarni juda aniq ajratib ko‘rsatganlar. Ular o‘rtasidagi asosiy farqlarni quyidagicha ajratish mumkin:

**1. Taqlid so‘zlar (imitatsiyalar)** bevosita, ekspressiv tarzda tovushlar yoki boshqa tabiiy hodisalarni ifodalaydi. Bu tovushlar hayvonlarning ovozlari, tabiatdagi hodisalar yoki

insonlarning harakatlari va holatlarini tasvirlashga qaratilgan boʻladi. Misol uchun, portlash, shovqin, yorugʻlik hodisalarini ifodalovchi soʻzlar.

**Undov soʻzlar (interyektivlar)** esa insonning hissiy munosabatlarini, kayfiyatini yoki irodani bildiradi. Bu soʻzlar koʻpincha baqiruvlar yoki undovlar shaklida boʻlib, odamning biror hodisaga nisbatan emotsional javobini ifodalaydi. Masalan: "Ur-ra!" yoki "Bäläkäy!" kabi ifodalar.

**2. Taqlid soʻzlar** yangi soʻzlar (ism yoki fe'l) yaratishda asos boʻlishi mumkin, yaʼni ular oʻzgarishlarga olib kelishi va yangi soʻzlar yasashga yordam beradi. Masalan: portlash (shart+lau), charlash (yalt+lau).

**Undov Soʻzlar** esa faqat emotsional yoki kayfiyatli ifodalash vositalari sifatida ishlatiladi va yangi soʻzlar yaratishga xizmat qilmaydi.

**Sintaksis jihatidan** ham farqlar mavjud:

**3. Taqlid soʻzlar** gapning alohida aʼzolarida ishlatiladi va baʼzan taʼrif, subyekt yoki predikat sifatida xizmat qiladi. Ular harakatlar yoki holatlarni tasvirlashda keng qoʻllaniladi. Masalan: "Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, eshik oldida dag-dag titrardi." (A.Qahhor).

**4. Undovlar** esa koʻpincha gapning grammatik strukturasi mustahkam oʻrin egallamaydi, ular hissiyotlarni ifodalash uchun ishlatiladi va koʻproq oʻzingizning his-tuygʻularingizni, kayfiyatingizni aks ettiradi.

**5. Taqlid soʻzlar** koʻproq aniq maʼnoga ega boʻlib, ularga izoh berish zarurati yoʻq. Ular oʻziga xos fonetik va morfologik tuzilishga ega.

**Undovlar** esa koʻpincha tushuncha yoki kontekstga bogʻliq boʻlib, ularni toʻgʻri tushunish uchun qoʻshimcha tushuntirish, mimika yoki intonatsiya kerak boʻladi.

**Xulosa** qilib aytganda, taqlid soʻzlar — oʻzbek tilining obrazlilik, ifodaviylik va hissiylik jihatidan boy qatlamini tashkil etuvchi muhim leksik birliklardir. Ularning lugʻaviy maʼnoga ega boʻlishi, yangi soʻz yasashda ishtirok etishi, aniq voqelikni ifodalashi va gapda oʻziga xos sintaktik vazifalarni bajarishi ularga mustaqil soʻz turkumi sifatida qarash imkonini beradi. Biroq ularning grammatik belgilarining cheklanganligi sababli baʼzan oʻzgarmas soʻzlar turkumiga kiritiladi yoki undov va ravishlar bilan chambarchas bogʻlanadi. Shuningdek, taqlid soʻzlarning tilshunoslikdagi tasnifi va oʻrni haqida hanuzgacha yakdil fikr yoʻq boʻlib, bu soha doimiy ilmiy

izlanishni talab etadi. Qolaversa, taqlid soʻzlar inson nutqining tarixiy taraqqiyoti, tovush ramziyligi, semantik imkoniyatlari hamda ifodaviy vazifalari nuqtai nazaridan ham lingvistik tadqiqotlar uchun boy manba boʻlib qolmoqda.

### **Adabiyotlar**

- Абаев В. И. 1976. Вопросы языкознаний. № 4.  
Ашмарин Н. И. 1925. Известия Азербайджанского университета. – Баку: № 1-2.  
Jespersen O. 1933. Linguistica. – Copenhagen.  
Кхусаинов К. 1987. Вестник АН Каз. № 4.  
Корнилов Г. 1984. Имитация в чувашском языке. – Чебоксары: Чувашское книжное издательство.  
Сапайев Қ. 2009. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент.  
Сайфуллаева Р. ва бошқалар. 2009. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент.  
Turdiyev I. 2024. Some issues of improving the provision of business terms in uzbekistan-english translation dictionaries. In international conference on interdisciplinary science. vol. 1, no. 12.  
[https://www.oed.com/dictionary/onomatopoeia\\_n?tab=meaning\\_and\\_use#3358649](https://www.oed.com/dictionary/onomatopoeia_n?tab=meaning_and_use#3358649)The Oxford English Dictionary, Hardcover –1989. Volume 1-20, (20 Volume Set)  
Востриков А. 1965. Теория познаний диалектического материализма. – Москва.

## **The history of the study of onomatopoeic words and the issues of their classification**

Dilshod Amirkulov<sup>1</sup>

### **Abstract**

Onomatopoeic words are studied on the basis of historical and linguistic sources, revealing their function as a means of representing natural sound phenomena. Definitions and approaches to these units found in various sources are compared, and their grammatical roles in the language system as part of the lexical wealth are highlighted. The article discusses the classification of these units as either independent or auxiliary

---

<sup>1</sup> *Dilshod T. Amirqulov* – Teacher, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** adilshod9001@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0005-2591-8357

**For citation:** Amirkulov, D.T. 2025. "The history of the study of onomatopoeic words and the issues of their classification". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (2): 160-167.

parts of speech. In modern Uzbek, onomatopoeic words represent one of the more complex and debated word categories. They are widely used in both spoken language and literary texts. Such words vividly and figuratively convey the sound, movement, or phenomenon they describe, emphasizing the liveliness, expressiveness, and dynamism of the expression. This underlines the relevance of the issue of determining the grammatical classification of onomatopoeic words in Uzbek linguistics.

**Keywords:** *onomatopoeia, semantics, phonetics, morphology, syntax, semantic-phonetic features, linguistic analysis, linguistic structure, part of speech, grammatical role, expressive components, phonological system, structural aspects of the word, communicative purpose.*

### **References**

- Abaev V. I. 1976. Voprosy yazykoznaniya.. No. 4. Pp. 77-80.
- Ashmarin N. I. 1925. Izvestiya Azerbaidzhanskogo universiteta. Baku,. Obshchestvennye nauki. No. 1 2. Pp. 143 157.
- Zhespersen O. 1933. Linguistica. Copenhagen,. 283 r.
- Khusainov K. 1987. Vestnik AN Kaz.. No. 4. Pp. 18 24.
- Kornilov G. 1984. Imitativy v chuvashskom yazyke. Cheboksary: Chuvashskoe knizhnoe izdatel'stvo,.
- Sapaev Q. 2009. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent.
- Sayfullaeva R. va boshqalar. 2009. Hozirgi uzbek adabiy tili. – Toshkent [https://www.oed.com/dictionary/onomatopoeia\\_n?tab=meaning\\_and\\_use#3358649](https://www.oed.com/dictionary/onomatopoeia_n?tab=meaning_and_use#3358649)The Oxford English Dictionary, Hardcover -1989. Volume 1-20, (20 Volume Set)
- Vostrikov A. 1965. Teoriya poznaniya dialekticheskogo materializma [The theory of knowledge of dialectical materialism]. Moscow.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot  
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)  
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga  
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [www.trans.compliterary.tsuull.uz](http://www.trans.compliterary.tsuull.uz)  
E-mail: [uzlangcult@gmail.com](mailto:uzlangcult@gmail.com)